

BOLALAR NUTQIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SOTSIOLINGVISTIK TAHLILI

Asqarova Guljahon Rahmatjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti

O'zbek tili filologiyasi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Bolalar nutqi o'zining tabiiylik va soddaligi bilan ajralib turadi. Ular til o'rgangan dastlabki davrlarida ko'pincha tovushga taqlid asosidagi so'zlardan, qisqartirilgan iboralardan va ko'plab frazeologik birliklardan foydalanadilar. Chunki bolalar o'zlari tushungan, ko'rgan yoki eshitgan so'z va iboralarni takrorlashga, ularga taqlid qilishga moyil bo'lishadi. Ular uchun frazeologik birliklar ham o'yin-kulgi vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tadqiqot davomida bolalar nutqida uchraydigan frazeologik birikmalar misollar orqali tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, bolalar nutqida frazeologik birliklar ko'pincha ijtimoiy muhit, do'stlar davrasi va ommaviy axborot vositalari ta'sirida shakllanadi. Ushbu maqola bolalar nutqini o'rganishda sotsiolingvistik yondashuv muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: frazeologik birikma, bolalar nutqi, sotsiolingvistika, semantik ma'no, ijtimoiy muhit, nutq madaniyati.

Kirish

Frazeologiya (yunoncha “phrasis” - ifoda, ibora va logiya) tilshunoslikning shunday bir bo'limi, boshqa bo'limlardan nutqqa tayyor holda kirib kelishi, leksik va semantik jihatdan o'zaro mos kelmasligi, ma'no jihatdan turg'unligi bilan farq qiladi. Uning, asosiy muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shunga qarab frazeologizmlarni aniqlashdir. Tilshunoslik fanining iboralarni o'rganadigan bo'limi frazeologiya deb ataladi. Shavkat Rahmatullayev fikricha: “Frazeologik birliklar xalqning tarixiy tajribasi va madaniy dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim til hodisasidir.” Frazeologik birliklar tilning obrazli va ta'sirchan ifoda vositalari bo'lib, nutqni yanada boyitadi. Tilshunoslikda frazeologik birikmalar ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, o'ziga xos ma'no ifodalovchi va mustahkam shaklda qo'llaniladigan birliklar sifatida izohlanadi. Ularning ma'nosi ko'pincha so'zlarning alohida ma'nosidan kelib chiqmaydi, balki umumiy semantik birlikni tashkil etadi. Bolalar nutqida frazeologik birliklarning qo'llanishi tilning rivojlanish jarayonini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, zamonaviy jamiyatda bolalar nutqiga ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari va ijtimoiy muhit katta ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli bolalar nutqida uchraydigan frazeologik birikmalarni sotsiolingvistik nuqtai nazardan tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir.

Asosiy qism

Frazeologik birliklar tilning leksik boyligini oshiruvchi muhim vositalardan biridir. Ular nutqni obrazli, ta'sirchan va mazmunli qiladi. Frazeologik birikmalar ko'pincha xalqning

hayot tajribasi, dunyoqarashi va madaniyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Masalan quyidagi frazeologik birliklar keng qo‘llaniladi: Ko‘z ochib yumguncha – juda tez vaqt ichida, Qo‘l qovushtirib turmoq – hech qanday harakat qilmaslik, Og‘zi qulog‘ida bo‘lmoq – juda xursand bo‘lish, Ko‘ngli tog‘dek ko‘tarilmoq – juda quvonmoq, Tilga kirib olmoq – gapga aralashib ketmoq.

Bu kabi birliklar nutqni boyitadi va fikrni obrazli tarzda ifodalashga yordam beradi. Bolalar nutqida frazeologik birliklarning ishlatilishi ularning tilni o‘zlashtirish jarayoni bilan bog‘liq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalar dastlab oddiy va bevosita ma’noga ega iboralarni qo‘llaydi, keyinchalik esa murakkab frazeologik birliklarni ham tushunib, ishlata boshlaydi. Bolalar nutqida quyidagi frazeologik birliklar tez-tez uchraydi: Boshingni qotirma – ortiqcha savol bermaslik, Ko‘zi yonib ketmoq – juda xursand bo‘lish, Ko‘ngli joyiga tushmoq – tinchlanish, Qo‘li kelmoq – biror ishni yaxshi bajara olish, Boshi osmonga yetmoq – juda quvonmoq, Yuragi orqaga tortmoq — qo‘rqib ketmoq, Ko‘z yumib qo‘ymoq — bilib turib e’tibor bermaslik, Til topishmoq — bir-birini yaxshi tushunmoq. Bu iboralar ko‘pincha oila, maktab va do‘stlar davrasida faol ishlatiladi.

Yosh guruhi	Frazeologik birliklarni tushunish darajasi
7-9 yosh	Oddiy iboralarni tushunadi.
10-12 yosh	Ko‘proq frazeologik birliklarni ishlata boshlaydi.
13-15 yosh	Murakkab va obrazli iboralarni faol qo‘llaydi.

Ushbu jadval bolalar nutqida frazeologik birliklarni tushunish va qo‘llash darajasining yoshga bog‘liq holda o‘zgarishini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 7–9 yoshdagi bolalar asosan oddiy va bevosita ma’noli iboralarni tushunadi. 10–12 yoshga kelib esa bolalar nutqida frazeologik birliklarni qo‘llash faollashadi hamda ular iboralarning ko‘chma ma’nosini asta-sekin anglay boshlaydi. Bu jarayon bolalarning til tajribasi, ijtimoiy muhit va nutq amaliyotining kengayishi bilan bevosita bog‘liqdir. Frazeologik birliklar bolalar nutqini boyituvchi asosiy vositalardan biridir. Ular ko‘pincha ommaviy axborot vositalari (multfilmlar, YouTube, TikTok, Instagram) orqali bolalar nutqiga kirib keladi va kundalik suhbatlarda faol ishlatiladi. Masalan, “bir oyoqda turib ketdi” iborasi voqeaning juda tez sodir bo‘lganini ifodalash uchun TikTok videolarida keng qo‘llanadi, “tilini yutib qo‘ydi” esa YouTube multfilmlar va izohlarda hayrat yoki noaniqlik holatini bildiradi. Shu bilan birga, “ko‘ngli joyiga tushdi” iborasi bolalar orasida yengillik va mamnuniyat tuyg‘usini tasvirlash uchun ishlatiladi. O‘zbek frazeologiyasida ham insonning turli darajadagi hissiyotlarini ifodalovchi misollar aniqlangan. Bularga quyidagilar kirishi mumkin: asabi taranglashdi -

asabiylashayotganini, bo'shashdi - tinchlanish yoki yuragi xotirjam bo'lishi ma'nosini anglatadi. qinidan chiqayozdi - o'ta qo'rqinchli yoki xavotirli tuyg'uni bildiradi. o'zbek frazeologiyasida inson his-tuyg'ularining neytrallashuvini ifodalovchi birliklar ham aniqlanadi: ko'ngli taskin topdi - tinchlandi degan ma'noni anglatadi. Bugungi kunda internet, multfilmlar va ijtimoiy tarmoqlar ham bolalar nutqiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ayrim frazeologik birliklar aynan shu manbalar orqali bolalar nutqiga kirib kelmoqda. Shuningdek, bolalar frazeologik birliklarning ma'nosini ko'pincha kontekst orqali tushunadi. Frazeologizmlarning aksariyati o'zbek tilida ham, boshqa xildagi tillarda ham xalq tomonidan yaratilgan, ularning mualliflari ma'lum emas, kelib chiqish manbalari aniq emas. Shu ma'noda frazeologik olim A.V. Kunin frazeologizmlarning ko'pchiligining muallifi noma'lum bo'lib, ular xalq tomonidan yaratilgan degan fikrlarni asosli ravishda ko'rsatib o'tgan. Ammo ba'zi frazeologik birliklarning kelib chiqish manbalarini aniqlash mumkin. Shu ma'noda frazeologiya tilning umumiy tizimiga kiruvchi mikrosistema bo'lib, bu tizim o'zida o'tmish merosni, qadriyatlarni aks ettiradi, avloddan - avlodga o'tadi. Tizimni tashkil etuvchi frazeologik birliklarning ko'pchiligi ma'lum tilning boyish manbaidir. Frazeologik tizimni frazeologik birliklar, ularning asosiy komponentlari o'rtasidagi munosabatni tashkil etadi. Frazeologizmlar birdan ortiq so'zlardan tashkil topgan, ma'no va shakl jihatdan turg'un bo'lgan so'zlar bog'lanmasidir. Frazeologizmlar ko'chma ma'noda, obrazli ifodalarda qo'llaniladi hamda tarixiy qo'llanish me'yorlariga, usullariga ega bo'lib, ularning ma'nosi muayyan nutq jarayonida oydinlashadi.

Frazeologik birliklarning bolalar nutqiga ta'siri:

1	Leksik boylikni oshiradi;	O'quvchilar yangi so'zlar va birikmalarni o'rganib, nutqini boy qiladi.
2	Ijodkorlikni oshiradi;	Frazeologik birliklardan foydalanish o'quvchilarning tasavvurlarini kengaytiradi.
3	Nutqning ifodaliligini oshiradi;	Ular orqali so'zlashuv jonli, obrazli va ta'sirchan bo'ladi.
4	Madaniy bilimni oshiradi;	Frazeologik birliklar milliy urf-odat va qadriyatlarni aks ettirgani uchun o'quvchilarning madaniy dunyoqarashi boyiydi.

Xulosa

Bolalar nutqida frazeologik birikmalarni o'rganish tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bolalar nutqida frazeologik

birliklarning ishlatilishi yosh, ijtimoiy muhit va madaniy tajribaga bog‘liq. Frazelogik birliklar bolalar nutqini boyitadi, fikrni obrazli va ta’sirchan ifodalash imkonini beradi. Shu sababli maktablarda frazeologik birliklarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratish zarur. Kelajakda bolalar nutqini sotsiolingvistik jihatdan yanada chuqur o‘rganish til rivojlanishini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.O‘zbek tili leksikologiyasi o‘zbekiston SSR fanlar akademiyasi A.S.Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti,Toshkent: Fan, 1981. -B.160.
- 2.Mamatov A.E."O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi.-T.:1997.-B.37
- 3.Yo‘ldoshev B. Frazelogizmlarning adabiy til normasi munosabatiga doir. T.:O‘TA.1992.3-son.-B.37-42.
4. Rahmatullayev Sh ., O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari, T., 1966; Rahmatullayev Sh., O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati, T., 1978.